

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Рахимова Нигина УЗБЕКИСТАН В ПОИСКАХ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ, ОБЩЕСТВЕННОЕ МНЕНИЕ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNING SAMARADORLIGI.....	14
3. Убайдуллаева Раиса СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТИПЫ МЫШЛЕНИЯ.....	24
4. Farfiyev Bakhramdjan, Makhmudova Munisakhon THE PHENOMENON OF THE NATIONAL MENTALITY AND ITS RELIGIOUS ELEMENT..	31
5. Сабирова Умида СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНОГО, ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	41
6. O‘razaliev Gulshada AYOLLARNING TA‘LIM OLISH JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINING FALSAFIY VA IJTIMOYIY MOHIYATI.....	50
7. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASIDA MILLIY PLATFORMALAR MASALASI....	56
8. Заретдинова Несибели СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА.....	64
9. Akramov Xusan HADISIY MEROS VA IJTIMOYIY ME‘YORLAR: NAZARIY HAMDA AMALIY TAHLIL.....	71
10. Ibragimov Murodjon JAMOATCHILIK BILAN ALOQA TEXNOLOGIYALARI (PR)NING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING SOTSIOMADANIY JIHATLARI.....	81
11. Raximbayeva Oftobxon MEHNAT FAOLIYATIDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNING KORRELYATSIYASI.....	90
12. Shaumarova Nigora IJTIMOIY KONSOLIDATSIYA KONSEPSIYASI: NAZARIYALAR, MEKANIZMLAR VA AMALIYOT.....	97


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

O'razalieva Gulshada,

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi
muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti
dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)
e-mail: g.urozaliyeva@yandex.ru

AYOLLARNING TA'LIM OLISH JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINING FALSAFIY VA IJTIMOY MOHIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17792924>

ANNOTATSIYA

Maqolada ayollarning ta'lim olishi masalasi tarixi, jahon va milliy miqyosdagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Qadimgi davrdan bugungicha bo'lgan jarayonda ayollarning bilim olishga bo'lgan intilishi va unga bo'lgan ijtimoiy munosabat o'zgarish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ayollarning ta'lim olish tarixi, bu jarayonning dunyoviy va milliy miqyosda rivojlanish bosqichlari, O'zbekiston ta'lim tizimiga xos jihatlar batafsil tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim tizimida gender yondashuvining roli va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishga ta'siri tahlil qilinadi. Gender tengsizliklarni bartaraf etish, ayollar uchun ta'lim va kasbiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida gender ta'limini davlat ta'lim standartlariga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda gender ta'limining hozirgi holati, erishilgan yutuqlar va kamchiliklar taxlil etilib, ta'lim tizimida gender yondashuvining o'rni va ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: gender ta'lim, gender tenglik, ayollar ta'limi, feministik g'oyalar, ma'rifatparvarlik, ta'limda teng imkoniyatlar, Yangi O'zbekiston.

Уразалиева Гулшادا,

доцент Национального исследовательского университета
«Ташкентский институт инженеров ирригации
и механизации сельского хозяйства»,
доктор философских наук (DSc)
e-mail: g.urozaliyeva@yandex.ru

ФИЛОСОФСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ ЖЕНЩИН

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается исторический аспект образования женщин, а также этапы развития данного процесса в мировом и национальном контексте, с учётом особенностей системы образования Узбекистана. Проанализированы изменения стремления женщин к получению знаний и общественного отношения к этому процессу с древних времён до наших

дней. Особое внимание уделено роли и значению гендерного подхода в системе образования, его влиянию на создание равных возможностей для женщин и мужчин. Подчеркивается необходимость интеграции гендерного образования в государственные образовательные стандарты с целью устранения гендерного неравенства, расширения образовательных и профессиональных возможностей женщин, а также повышения социально-экономического потенциала страны. Кроме того, в статье проводится анализ современного состояния гендерного образования в Узбекистане, оцениваются достигнутые успехи и существующие недостатки, аргументируется значение гендерного подхода в образовательной системе.

Ключевые слова: гендерное образование, гендерное равенство, женское образование, феминистские идеи, просветительство, равные возможности, Новый Узбекистан.

Urazaliyeva Gulshada,
Associate professor, Tashkent Institute
of Irrigation and Agricultural Mechanization
Engineers (National Research University)
Doctor of Philosophy (DSc),
e-mail: g.urozaliyeva@yandex.ru

PHILOSOPHICAL AND SOCIAL DIMENSIONS OF THE GENDER APPROACH IN WOMEN'S EDUCATION

ABSTRACT

The article examines the historical aspects of women's education, as well as the stages of its development both globally and nationally, taking into account the specific features of Uzbekistan's education system. It analyzes changes in women's aspirations for acquiring knowledge and societal attitudes toward this process from ancient times to the present. Special attention is given to the role and significance of the gender approach in the education system, and its impact on creating equal opportunities for women and men. The necessity of integrating gender education into state educational standards is emphasized to eliminate gender inequality, expand educational and professional opportunities for women, and enhance the country's socio-economic potential. Additionally, the article provides an analysis of the current state of gender education in Uzbekistan, evaluating achievements and existing shortcomings, and substantiates the importance of the gender approach within the educational system.

Keywords: gender education, gender equality, women's education, feminist ideas, enlightenment, equal opportunities, New Uzbekistan.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat rivojlanishida ta'lim tizimi inson kapitali va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsning dunyoqarashi, axloqi va ijtimoiy mavqeini shakllantirishda muhimdir. Gender yondashuvini ta'lim jarayoniga joriy etish jamiyatda teng huquqlilik va adolat tamoyillarini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda demokratik qadriyatlar asosida har qanday turdagi diskriminatsiyani bartaraf etish, xususan, ayollar va qizlar uchun ta'lim imkoniyatlarida tenglikni ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Gender yondashuvi ta'lim jarayonida ayol va erkaklar imkoniyatlarini tenglashtirishga, shaxsning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishiga yordam beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlari, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar tashkil etadi. Tadqiqot doirasida qiyosiy tahlil qilish usullari, tarixiylik va mantiqiylik, umumiylik va xususiylik birligi tamoyili, induktiv va deduktiv yondashuvlar hamda ob'ektivlik tamoyillari qo'llanildi. Shuningdek, kontent-tahlil, retrospektiv tahlil va ma'lumotlarni qayta ishlash hamda tahlil qilishning raqamli usullari kabi sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Maqolada

I.S.Konning “Jinsiy differensial” tamoyili, M.Uolstounkraft, O.Musurmanova, G.Urazalieva va boshqa olimlarning gender ta’limiga oid tadqiqotlari ko‘rib chiqilgan [1,2,3].

ASOSIY QISM

Bugungi global tahdidlar va tez sur’atlarda o‘zgarib borayotgan dunyo sharoitida xalqimizning ma’naviy merosini, tarixini va qadriyatlarini asrab-avaylash, yosh avlodni milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham, yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishdek zalvorli hamda murakkab vazifani samarali amalga oshirish uchun ta’lim jarayonlarida zamonaviy usullar, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va yangi munosabatlarni joriy etish zaruriyati kun tartibiga qat’iy kirib kelmoqda. Jamiyatimizning teng yarmini tashkil etuvchi ayollar – bu taraqqiyot jarayonining eng faol va salmoqli qismi sanaladi. “O‘zbekistonning uzoq tarixi – ayollarimizning ham o‘tmishidir. Shoirlar, davlat rasmiylari, diplomatlar, muhandislar, hamshiralari, rafiqalar va onalar. Bu nozik sharqona san’at bo‘ladimi, yoki qat’iy va aniq fanlarni – o‘zbek ayollari barcha sohalarda a’lo darajada ilgari borishdi, ammo soyada qolib kelishdi. Ularga boshlarini baland ko‘tarib, o‘z qobiliyatlari va mahoratlarini qo‘rqmay, cheklovlarsiz ko‘rsata olish imkonini beradigan vaqt keldi [4]. Shu bois, ularning bilim olishi, kasbiy va ma’naviy kamolotiga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlari nafaqat jamiyat ravnaqi, balki butun millatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ayollarning ta’lim olishi va jamiyatdagi faolligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu – Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Tobora globallashtayotgan va har soniyada transformatsiya jarayonlari kechayotgan bu davrda milliy qadriyatlarimizni saqlash, milliy tariximizni har tomonlama chuqur o‘rganish va uning ma’naviy asoslarini yoshlar ongiga singdirish Yangi O‘zbekistonni barpo etishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushunchasida jamuljam bo‘ldi” [5].

Tarixga nazar solsak, har bir davrda ayollarning ta’lim olishi oson kechmagan. Uzoq asrlar davomida ayollar bilim olish huquqidan mahrum bo‘lgan, jamiyatda ularning ilmiy va ijtimoiy faolligi chegaralangan. Faqat XX asrning boshlaridan e’tiboran, ayollar dunyo miqyosida ta’lim olish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu tarixiy jarayon – bugungi kundagi ayollar faolligi, ilmiy izlanishlari va ijtimoiy rolining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

Birinchi maktablar Qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan. Ta’limning eng mashhur tizimlari – sparta, afina, shuningdek, ritsarlik ta’limi va jentelmenlarni tarbiyalash (J.Lokk) kabi ta’lim tizimlari shu kabilardan edi.

Tahlillarga qaraganda, antik davrdan boshlab Uyg‘onish davrigacha bo‘lgan ta’lim tizimi erkaklar xarakteriga muvofiq, ya’ni erkakning xulq-atvor xususiyatlariga ko‘ra tarbiyalash va ta’lim berishga qaratilganligini sezish mumkin. Ayollar uchun ta’lim muassasalari deyarli yopiq bo‘lib, ular uchun maktabga borish ko‘pincha taqiqlangan. Shunga qaramay, ayollar doimo ilm va bilimga intilib yashaganlar. Margaret Alik o‘z kitobida Pifagor maktabida o‘qituvchilar va talabalar orasida 30 ga yaqin ayollar borligini yozadi [6]. Platon Akademiyasida “zaif jins” vakillari ma’ruzalarga erkaklar kiyimida kelishga majbur bo‘lganlar, chunki qonun ayollarni jamoat yig‘ilishlariga borishlariga, bilim olishlariga ta’qiqlar qo‘yishgan. Ma’lumki, Peloponneslik Axiopieia Platon akademiyasida tabiiy falsafani o‘rgangan. U fizika faniga o‘zgacha qiziqqan edi. Platon vafotidan keyin ham Axiopieia Platon Akademiyasida dars berdi. Miloddan avvalgi III asr atrofida Afinada bunyod etilgan Epikur maktabida ham, Platon akademiyasida bo‘lgani kabi, ayollar erkaklar bilan bilim olishga intilgan ayollar bo‘lgan.

Qadimgi Rimda ayollarning ijtimoiy mavqei Afinaga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi yaxshi ma’lumotga ega bo‘lganlar. Rimliklar orasida ayollarga meditsina bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan. Ushbu tarixiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limning erkak

xarakteriga moslanishiga qaramay, ayollarga qanchalik ta'qiqlar qo'ysalarda, cheklangan miqdorda va istisno tariqasida fanga kirish imkoniga ega edilar.

Ta'lim tizimiga gender yondashuvi albatta kerak. Marifatparvarlik davriga kelib xotin-qizlarning ta'lim-tarbiyasiga munosabat o'zgara boshladi. Bu davrlarga kelib, birinchi marta ayollarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ayollarning bilim olish imkoniyatlari masalasi ko'rib chiqila boshlandi. Jan-Jak Russo (1712-1778) tomonidan "Emil yoki ta'lim to'g'risida" (1762) va "Juliya yoki Yangi Xeloza" (1761) romanlarida gender tabaqalashtirilgan ta'lim nazariyalari ilgari surilgan. J.J.Russoning fikricha, ayollar erkaklardan ko'ra, eng yaxshi insoniy his-tuyg'ularni – sevgi, rahm-shafqat, g'amxo'rlikni uyg'otish qobiliyatiga ega va shuning uchun ularga foydali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Russo tomonidan ilgari surilgan "tabiiy" ayol ta'limi nazariyasida, mutafakkir nazorat ta'limi konsepsiyasi sifatida, quyidagi asosiy ko'rsatmalarni belgilab o'tadi:

- 1) uydagi ta'lim;
- 2) ayolni onalikka tarbiyalash;
- 3) ta'limning uzluksizligi, ya'ni ayol turmush qurgandan keyin ota-tarbiyachi vazifalari eriga o'tadi.

Patriarxal jamiyat doirasida J.Russoning g'oyalari shubhasiz, ayollarni ta'lim olishlari uchun katta yutuq bo'lgan bo'lsa ham, lekin baribir ayollarning erkaklarga teng shaxs sifatidagi rolini aks ettira olmadi. Ayol hali ham ikkinchi darajali, qaram mavjudot sifatida qabul qilinaverdi. Marifatparvarlik davrida birinchi bo'lib xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ayollarni ozod qilish g'oyalari o'rtaga tashlana bordi.

Ilk feministik g'oyalarni ilgari surgan M.Uolstounkraft (1759-1797) o'zining "Ayollar huquqlarini himoya qilish" (1792) kitobida ayollarning ta'lim olish huquqlarini himoya qilib chiqadi. M.Uolstounkraft tomonidan ayollar ta'lim olishining falsafiy konsepsiyasi va J.J.Russoning g'oyalari o'z davrida ayollar uchun g'oyat ahamiyatli bo'lib, ayollarni ta'limga intilishlari va ijtimoiy faoliyatga bo'lgan munosabatlarini shakllantiradi. Ta'limda yetakchi rolni ayolning gnoseologik, mantiqiy va falsafiy qobiliyatlarini rivojlantirish o'ynasa, uning doirasida ahloqiy va fuqarolik tarbiyasi (jamiyatni liberal o'zgartirishga qaratilgan) ham bevosita amalga oshiriladi. M.Uolstounkraftning katta xizmatlaridan biri shundan iborat ediki, u birinchilardan bo'lib, ayol subyektivligining an'anaviy modelini erkak madaniyati doirasida yaratilgan sun'iy ijtimoiy konstruktsiya sifatida tahlil qila olgan va patriarxal jamiyatning ko'plab xususiyatlarini tanqid qilgan olim edi.

Ta'kidlash joizki, tarixiy ma'lumotlarda qayd etilganidek, yurtimizda ayollarning savodxon bo'lishlariga, ularing ilm olishlariga doimo katta e'tibor berilgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida bu masalalar davlat siyosati darajasida qaralgan. Saroymulxonim, Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim kabilar bilimli ayollar halq orasida e'zozlangan. Qo'qon xoni Umarxonning rafiqasi Nodirabegim fan, madaniyat, san'atga ko'p marataba homiylik qilib kelgan. Ayollar ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meroslarni avlodlardan-avlodlarga ma'rifat yo'li bilan yetkazganlar.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida jadidchilik harakati namoyondalari ayollarni ta'lim olishga jalb etish tashabbusi bilan chiqqanlar. Zero, oiladagi bola tarbiyasi, ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan ayollar qo'lida ekani hammaga ayon edi. Masalan, Anbar Otin ayollar bilim olishlarini orzu qilib: "Bir zamon bo'lurki, ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig'a muyassar bo'lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug'lar safig'a doxil bo'lurlar, alar hayrat va mehnatda erlarg'a hamfo va yovar bo'lub, obro' topib, hurmat va ikromg'a sazovar bo'lurlar", deb aytgan edi [7, 84].

Abdurauf Fitrat esa: "Xotinlarimiz va qizlarimiz-millat onalari, ular ilm va tarbiya olishlari lozim, axloq bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur", deb ayollarning bilim olishlarini himoya qilgan [8].

Barcha jamiyatlarda ham ayollarni bilim olishi oson kechmagan. Tahlillarga ko'ra, ayollarning bilimga intilishi taraqqiyotini ikki bosqichga bo'lsak bo'ladi: birinchi bosqichda jamiyat ayollarning bilim olishiga erk bergan bo'lsa, ikkinchi bosqichda esa ta'qiqlar qo'ydi.

Dahshatli urush davrlarida ham ayollarning ilm va ma'rifatga tashnaligi so'nmadi. Ular tibbiyot o'quv kurslariga kirib tibbiyot sirlarini o'rgangan holda frontlarda o'z qahramonliklarini namoyon qila boshladilar. Urush faxriylarining xotinalaridan shu narsa ravshan bo'ladi-ki, xotin-qizlar xoh dala

gospitalida bo'ladimi, xoh jangdami, baribir yuksak matonat va burchga sodiqlik namunasini ko'rsatishgan [9]. Biroq, negadir bu ayollarning nomlari tarix va falsafada tilga ko'p olinavermaydi. Umuman, ayollarning fanga qo'shgan hissasi haqida juda kam gapiriladi. Ilm-fan insonning ishi va barcha ilmiy kashfiyotlar faqat erkaklar tomonidan amalga oshiriladi, deb ishoniladi. Tarix bu fikrning noto'g'ri ekanligini isbotladi. Keyingi davrlarda ayollarning bilim olishga intilishlari yangi gender ideologiyasini shakllantirishga katta turtki bo'ldi.

Yangi mustaqil davlatlarning halqaro tashkilotlar bilan ishlay, boshlagani, ayollar huquqlarini himoya qilish borasida to'plangan xalqaro tajribalardan foydalanish, mintaqa uchun yangi bo'lgan gender tengligi g'oyasi va zamonaviy konsepsiyalarni olib kirish va rivojlantirish imkoniyatini berdi va xotin-qizlar muammosiga yangicha yondashuvni, ya'ni gender ta'limining uslub va mohiyat jihatdan qo'llash zarurligini taqozo etdi. O'zbekistonda ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Masalan, oliy ta'lim qamrovi keskin oshdi, 2017-2022-yillar davomida erkaklar orasida oliy ta'limda erkaklar ulushi 29% ga, ayollar ulushi esa 29% oshgan [10].

Taniqli mutafakkir I.S.Kon "Bola va jamiyat" (1988) kitobida: "Odamlarda jinsiy tabaqalanishni o'rganishda ijtimoiy-tarixiy omillarning rolini hisobga olish kerak. Nafaqat erkaklar va ayollar o'rtasidagi psixofiziologik farqlar, balki ular o'rtasidagi ijtimoiy bo'linishning mavjud shakllari, ijtimoiy gender rollar turli jamiyatlarda teng taqsimlanmagan, balki ijtimoiy tuzumga, birinchi navbatda, ishlab chiqarish usuliga bog'liqdir. Erkaklar va ayollarning barcha ruhiy xususiyatlari ularning jinsiga bog'liq emas va hatto bunday qat'iylik aniq mavjud bo'lganda ham, u muhit sharoitlar, tarbiya, faoliyat turi va shu kabi boshqa vositalar orqali o'zgartiriladi", deb yozgan edi [11].

Gender-ijtimoiy jins, insoning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini anglatadi. Qadimdan patriarxal jamiyat doirasida erkak va ayolning ijtimoiy rollari aniq ajratilgan: ayol – ona, uy bekasi, erkak – boquvchi, himoyachi. Demokratiya ayollarga ta'lim olishda, kasbiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishda erkaklar bilan teng huquqlar berdi. Ammo, bularning barchasiga qaramay, ta'lim usullari va uslubi o'zgarishsiz qolmoqda. Jamiyat, bir tomondan, jinsidan qat'i nazar, raqobatbardosh mutaxassis tarbiyalashni talab etayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, oila va maktab yosh avlodni patriarxat doirasida tarbiyalamoqda.

Tahlillarga qaraganda, ta'lim sohasida davomli nomutanosib qamrov qisman oilalardagi hukmron gender me'yorlari bilan bog'liq. Ayniqsa, O'zbekiston qishloqlarida xotin-qizlar oliy ta'lim olishda qo'shimcha to'siqlarga duch kelmoqdalar, chunki oliy o'quv yurtlarining aksariyati Toshkentda, viloyat markazlarida joylashgan. Bu, ko'pincha, xotin-qizlardan oliy o'quv yurtiga borish uchun uydan tashqarida yashashni talab qiladi, ko'p oilalar esa bunga rozi bo'lmaydilar. Jahon bankining "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi so'rovnomasida ayollar (52 foiz) va erkaklar (57 foiz) respondentlarning aksariyati – erkaklar xotin-qizlarga nisbatan oliygohlarda o'qishda ustuvor huquqqa ega ekanligi qayd etganlar. Lekin, avvallari O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga juda kam talabalar qabul qilingan va ular orasida erkak bitiruvchilar soni ayollarnikidan yuqori bo'lgan edi. Ammo, so'nggi yillarda ayollar (27,4%) va erkaklar (29,0%) uchun qabul ko'rsatkichlari keskin o'sdi va bu ilgari mavjud bo'lgan gender tafovutni qisqartirishga yordam berdi. Lekin, baribir ayollar asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat sohalarda ulushi ko'proq bo'lib, erkaklar esa transport, aloqa, savdo, qishloq xo'jaligi, sanoat va qurilish sohalarida o'qishni tanlaydilar [12].

Asosiy masala, ta'limda gender yondashuvi omillarini o'ziga xos ta'sirini hisobga olishdir. J.B.Shtylevaning ta'kidlashicha, gender yondashuvining maqsadi, "jinsga bog'liq holda shaxsning potensialini rivojlantirish bo'yicha an'anaviy madaniy cheklovlarni dekonstruksiya qilish, tushunish va maksimal darajada o'zini anglash va oshkor qilish uchun sharoit yaratishda, gender ta'limining asosiy vazifasi genderni oid "stereotiplarning mohiyatini tushuntirish, ularning tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy sharoitlarini ko'rsatish" zarurati bilan belgilanadi [13].

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilishimiz mumkinki, gender ta'limini ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlariga kiritish muvofiq, ayniqsa, ta'lim va tarbiya tizimiga gender farqlarni jamoatchilik tomonidan idrok etish mavzusi juda dolzarbdir. Gender nazariyasi bo'yicha

maktab va oliygoch o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini qo'llab quvvatlash kerak. Qizlar va o'g'il bolalarga ta'lim va mehnat faoliyatida o'sishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradigan rol namunasi bilan ko'proq muloqot qilish imkoniyatini berish – ularning intilishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va ta'lim qamrovidagi gender muvozanatni yaxshilashga yordam beradi. Albatta xotin-qizlar salohiyatidan foydalanish jamiyatga juda katta foyda keltiradi.

Jahon Banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, gender tafovutlarini bartaraf etish O'zbekistondagi inklyuziv transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun juda muhimdir. Agar ayollar erkaklar bilan jamiyat va davlat ishlarida teng darajada ishtirok etsa, O'zbekistonning milliy daromadi 29 foizga ko'p bo'ladi. Agar ishlaydigan ayollar erkaklar tomonidan olinadigan ish haqini to'ldirishsa, daromadning oshishi 700 000 dan ortiq odamni qashshoqlikdan olib chiqadi [14].

Shunday qilib, oliygochlarda gender ta'limi joriy etish, yoshlarga ijtimoiylashuv muammolarini yengishda, oilaviy munosabatlarda gender sezgirlikni oshirishga, amalda tenglikni tamoyillini oshirishda yordam beradi. Gender ta'lim-tarbiya gender stereotiplarini bartaraf etishga, yoshlarning o'z-o'zini anglashi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Gender ta'limi, shuningdek, otalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishga yordam berib, ularda tolerantlikni shakllantiradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Уоллстонкрафт М. В защиту прав женщины // Феминизм: проза, мемуары, письма, эссе. М.: Прогресс, 1992. – С. 26-39.
2. Мусурмонова О. Таълим тизимида гендер тенгликнинг миллий модели. (Шарк менталитети асосида). Монография. Тошкент, 2024.
3. Уразалиева Г.Б. Ўзбекистонда оила институти фаолиятини мустаҳкамлашнинг ижтимоий фалсафий муаммолари. – Тошкент, 2024. – 273 б.
4. Саида Мирзиёеванинг Бутунжаҳон аёллар форумида сўзлаган нутқи. Интернет ресурс. <https://zamin.uz/dunyo/67318-saida-mirzиеeva-butunjahon-aellar-forumida-nutq-suzladi-foto.html>
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2021. 464 б.
6. Alik M. Hypantia's heritage: A history of women in science from Antiquity to the late 19th cent. – L.: Women s' press, 1986.
7. Анбар отин. Танланган асарлар. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б.84.
8. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: “Маънавият”, 1998. – Б. 98.
9. Самаров Р. Жамият ва қуролли кучлар феминизациялашуви. Монография. – Тошкент, 2008. – Б.62.
10. Узбекистан – гендерная оценка страны. Интернет-ресурс. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099052824010026891>
11. Кон И.С. Ребенок и общество. – М.: Наука, 1988. – С. 169.
12. Узбекистан – гендерная оценка страны. Интернет-ресурс. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099052824010026891>.
13. Гендерный подход в дошкольной педагогике: теория и практика: в 2 ч. /Под ред. Л.В. Штылевой. Мурманск, 2001. – С.78.
14. Узбекистан – гендерная оценка страны. Интернет-ресурс. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099052824010026891>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000